

**QORAQALPOG‘ISTON RESPUBLIKASI HUDUDIY NASHRLARINING  
JANRIY TABIATI VA O‘ZIGA XOSLIGI****Sadoqat Raxmatova**

*O‘zbekiston davlat jahon tillari universiteti “Axborot xizmati va jamoatchilik bilan aloqalar” kafedrasida o‘qituvchisi*  
[sadoqat.rahmatova97@gmail.com](mailto:sadoqat.rahmatova97@gmail.com)  
+998919554446

**ANNOTATSIYA**

*Ushbu maqolada O‘zbekiston matbuotining muhim tarkibiy qismi hisoblangan Qoraqalpog‘iston Respublikasi davriy nashrlarining tarixiy va zamonaviy janrlar tizimi tahlil qilinadi. Sovet ittifoqi davridagi agressiv ritorika va mafkuraviy qoliplardan bugungi kunning raqamli media tendensiyalarigacha bo‘lgan transformatsiya jarayonlari yoritilgan. Shuningdek, Qoraqalpog‘iston matbuotining hududiy o‘ziga xosligi, ekologik va ijtimoiy-siyosiy mavzularning aks etishi hamda Qashqadaryo matbuoti bilan qiyosiy tahlili keltirilgan. Raqamli davrda bosma nashrning Data jurnalistika va multimedia integratsiyasidagi yutuq va kamchiliklari aniqlangan.*

**Kalit so‘zlar:** *Qoraqalpog‘iston matbuoti, janrlar tizimi, transformatsiya, raqamli integratsiya, QR-kod, data jurnalistika, storytelling, orol muammosi.*

**АННОТАЦИЯ**

*В данной статье анализируется историческая и современная система жанров периодических изданий Республики Каракалпакстан, являющихся важной составной частью прессы Узбекистана. Освещаются процессы трансформации от агрессивной риторики и идеологических шаблонов советского периода до современных тенденций цифровых медиа. Также представлены региональная специфика каракалпакской прессы, отражение экологических и социально-политических тем, а также сравнительный анализ с прессой Кашкадарьи. Выявлены достижения и недостатки печатных изданий в области дата-журналистики и мультимедийной интеграции в цифровую эпоху.*

**Ключевые слова:** *пресса Каракалпакстана, система жанров, трансформация, цифровая интеграция, QR-код, дата-журналистика, сторителлинг, проблема Арала.*

**ABSTRACT**

*This article analyzes the historical and modern genre system of periodicals in the Republic of Karakalpakstan, which constitute an important part of the Uzbek press. It highlights the transformation processes from the aggressive rhetoric and ideological templates of the Soviet era to today's digital media trends. Furthermore, the regional specificity of the Karakalpak press, the reflection of environmental and socio-political*

themes, and a comparative analysis with the Kashkadarya press are presented. The achievements and shortcomings of the print media in data journalism and multimedia integration in the digital age are identified.

**Keywords:** Karakalpak press, genre system, transformation, digital integration, QR-code, Data journalism, storytelling, Aral Sea problem.

Qoraqalpog‘iston matbuoti sovet ittifoqi davrida sof axborot tarqatish vositasi emas, balki lenincha formula asosida “kollektiv targ‘ibotchi, kollektiv tashviqotchi va kollektiv tashkilotchi” vazifasini bajargan. Biroq, davrlar o‘zgarishi bilan ushbu vazifani amalga oshirish uslublari va janrlar tizimi jiddiy transformatsiyaga uchradi.

O‘zbekiston matbuotining muhim hududiy tarmoqlaridan biri bo‘lgan Qoraqalpog‘iston Respublikasi gazetolari tahlili ham alohida ahamiyat kasb etadi. Chunki har bir hududiy matbuot o‘zining ijtimoiy-siyosiy sharoiti, auditoriyasi va tarixiy rivojlanish jarayoniga ko‘ra o‘ziga xos janriy tizimni shakllantiradi. Qoraqalpog‘iston gazetolari ham ana shu jihatdan boy tajriba va rang-barang janrlar majmuasiga ega bo‘lib, ularda axborot, tahliliy hamda publitsistik materiallar uyg‘unlashgan holda namoyon bo‘ladi.



Qoraqalpog‘iston matbuoti sovet ittifoqi davrida sof axborot tarqatish vositasi emas, balki “kollektiv targ‘ibotchi, kollektiv tashviqotchi va kollektiv tashkilotchi” vazifasini bajargan. Biroq, davrlar o‘zgarishi bilan ushbu vazifani amalga oshirish uslublari va janrlar tizimi ham jiddiy transformatsiyaga uchragan.

“Sovet Qoraqalpog‘iston” hozirgi “Erkin Qoraqalpog‘iston” gazetasining 1937-yildagi janrlar tizimida siyosiy bosh maqola (peredovitsa), keskin tanqidiy felyeton, fosh qiluvchi korrespondensiya, TASSning xalqaro telegraf xabarlarini va siyosiy karikatura yetakchi hisoblangan<sup>12</sup>. Ushbu davr matbuoti to‘liq “shafqatsiz kurash” va agressiv ritorika bilan sug‘orilgan. Hatto “qishloq xo‘jaligi, savdo yoki maktab qurilishiga oid kundalik muammoli maqolalar ham shunchaki kamchilikni ko‘rsatish emas, balki tizim dushmanlarini fosh qilish maqsadini ko‘zlagan<sup>13</sup>.

Kolxozlar va mashina-traktor stansiyalaridagi mas‘uliyatsizlik hamda hisobotlarni soxtalashtirish holatlari shaxslarni ko‘rsatgan holda ayblov ohangida fosh etilgan<sup>14</sup>. Xalqaro hayotni yoritishda ham antifashistik harakatlar va urush tafsilotlari orqali

<sup>12</sup> “Советская Каракалпакия”. –1937. сс17 мая. –№ 107.

<sup>13</sup> “Покончить с косностью в строительстве школ” // Советская Каракалпакия, – 1937. –17 мая. – № 107.

<sup>14</sup> “Процветает очковительство” / “Ремонтом заниматься «некогда»” // Советская Каракалпакия, –1937. –2 июня. – № 120.

ommani mafkuraviy safarbar etish xarakteri ustunlik qilgan<sup>15</sup>. Jamiyatda atestik dunyoqarashni shakllantirish uchun esa partiyaviy dasturiy ko‘rsatmalar janridan foydalanilgan<sup>16</sup>.

**Urushdan keyingi davrga** kelib agressiv ritorika o‘rnini qisman “bunyodkorlik va mehnat pafosi” egalladi. Janrlar tizimida rasmiyatchilik kuchayib, SSSR Oliy Soveti Prezidiumining mukofotlash to‘g‘risidagi farmonlari va davlat hujjatlari to‘liq matn shaklida sahifalarni to‘ldira boshladi<sup>17</sup>. Shu bilan birga, inson omiliga e‘tibor ortishi natijasida **portret-ocherk va yubiley ocherklari kabi publitsistik janrlar** gazeta sahifalaridan o‘rin oldi<sup>18</sup>. Ilm-fan va madaniyat sohasidagi yutuqlarni ulug‘lash uchun yirik ilmiy-publitsistik maqolalar chop etildi<sup>19</sup>. Shuningdek, mashhur shaxslar hayotiga bag‘ishlangan biografik va ma‘rifiy matnlar yubiley ocherki janrida berildi<sup>20</sup>. Iqtisodiyot sohada esa fosh qilish emas, balki kolxozlarning yillik hisobotlari, daromadlarni taqsimlash va xo‘jalik yuritish samaradorligini oshirishga qaratilgan tahliliy-iqtisodiy janrlar ustunlik qildi. Mahalliy ishlab chiqarish va Orolbo‘yi hududiga xos bo‘lgan tarmoqlar muvaffaqiyati esa ixcham ishlab chiqarish xabarlari (svodka) orqali yoritildi<sup>21</sup>.

1960-yillarga kelib, siyosiy intervyu va fotoreportajlarning rivojlanishiga zamin yaratildi. Davlat rahbarlarining xorijiy safarlari va xalqaro munosabatlar foto va matn uyg‘unligidagi operativ janrlarda aks ettirildi<sup>22</sup>. Xalqaro siyosatning eng muhim mavzulari savol-javob shaklidagi intervyu janri orqali ochib berildi. Matbuotda oddiy xalq bilan teskari muloqot o‘rnatish maqsadida tahririyatga kelgan xatlar asosidagi **sharh janri** shakllandi. Dogmatik chaqiriqlar o‘rnini tashqi siyosat va mafkura masalalarini ilmiy-publitsistik tahlil qiluvchi nazariy-mafkuraviy maqolalar egalladi<sup>23</sup>. Qishloq xo‘jaligidagi ko‘rsatkichlar va paxta tayyorlash raqamlari esa **iqtisodiy janr** hisoblangan ma‘lumotnoma jadvali shaklida berila boshladi. Shuningdek,



<sup>15</sup> Гражданская война в Испании. Положения на фронтах” // Советская Каракалпакия, – 1937. – 17 мая. – № 107.

<sup>16</sup> Крупская Н. «Поднять антирелигиозную пропаганду» // Советская Каракалпакия. – 1937. – 17 мая. – № 107.

<sup>17</sup> “Указ Президиума Верховного Совета СССР...” // Советская Каракалпакия, –1949. – 14 января. – № 9

<sup>18</sup> “Юбилей учительницы” // Советская Каракалпакия, –1950. –3 января № 2

<sup>19</sup> Қори-Ниёзов Т. «Расцвет науки в Советском Узбекистане» //Советская Каракалпакия. – 1950. –3 января. – № 2.

<sup>20</sup> “Научный подвиг Софьи Ковалевской” // Газета «Советская Каракалпакия». – 1950. – 6 января. – № 4.

<sup>21</sup> “Стахановцы добычи и обработки рыбы” // Советская Каракалпакия. – 1949. – 14 января. – № 9.

<sup>22</sup> “Пребывание тов. Н. С. Хрущева в Индии” // Советская Каракалпакия. – 1960. –14 февраля. – № 32.

<sup>23</sup> “Ленинский принцип мирного сосуществования и идеологическая борьба” // Советская Каракалпакия. –1960. – 14 февраля. –№ 32.

o'quvchini mehnatga undash uchun shior-sarlavhalar ostida keskin chaqiriq maqolalari chop etildi<sup>24</sup>.

1980-1981-yillarda matbuot janriy jihatdan o'ta qoliplashgan (shablon) va rasmiy-idoraviy holatga keldi. Gazetaning butun boshli sahifalari Qoraqalpog'iston ASSR Oliy Soveti sessiyalari, deputatlarning quruq nutqlari matnlari va rasmiy ma'ruzalar bilan to'ldirildi. Nashrning o'sha kungi siyosiy-g'oyaviy yo'nalishini belgilab beruvchi an'anaviy bosh maqola (peredovitsa) janri yetakchiligini saqlab qoldi. Har bir mehnat yutug'i partiya syezdiga sovg'a sifatida talqin qilinib, balandparvoz chaqiriq janrida yoritildi<sup>25</sup>. Tashqi dunyo tahlili va xalqaro yangiliklar esa bitta tizimli ruknga jamlanib, qisqa xabarlar (zametka) ko'rinishida berildi. Ammo fotojurnalistika o'sib, ishlab chiqarish jarayonidan fotolavhalar va mehnat ilg'orlarining yirik portretlari mustaqil janr elementiga aylandi.

1991-yilda mustaqillikka erishilgach, gazeta o'z nomini qoraqalpoq tilida "Еркин Қарақалпақстан", rus tilida esa "Вести Каракалпакстана" deb o'zgartirdi<sup>26</sup>. 1990-yillar va 2000-yillarda sovetizmga asoslangan turg'un janrlar (sotsialistik musobaqa svodkalari, sinfiy dushmanlarni fosh qilish, kapitalizm inqirozi sharhlari) butunlay tariqatga aylandi<sup>27</sup>. Siyosiy bosh maqolalar o'rnini milliy davlatchilik, suverenitet va milliy qadriyatlarni tiklashga qaratilgan erkin ijtimoiy-siyosiy sharhlar egalladi<sup>28</sup>. Ilgari faqat rasmiy doiralar bilan cheklangan intervyu janri endi mahalliy tadbirkorlar, ziyolilar va oddiy odamlar bilan ochiq muloqot shakliga o'tdi. Rejali iqtisodiyot hisobotlari o'rniga bozor iqtisodiyotiga o'tish va fermerlik harakatini shakllantirishga bag'ishlangan yangi turdagi iqtisodiy-tahliliy maqolalar va muammoli korrespondensiyalar paydo bo'ldi.

Sovet davrida yopilgan qoraqalpoq xalqi tarixi, jadidchilik harakati va qatag'on qurbonlari xotirasiga bag'ishlangan tarixiy ocherklar, xotira-esselar va hujjatli surishtiruvlar yetakchi janrlarga aylandi<sup>29</sup>. Shuningdek, ekologik fojia (Orol muammosi) va inson huquqlariga qaratilgan tahliliy-tanqidiy maqolalar ustunlik qila boshladi<sup>30</sup>.

Bugungi kunda "Erkin Qoraqalpog'iston" va "Вести Каракалпакстана" gazetalari Qoraqalpog'iston Respublikasi Joqarg'i Kengesi va Vazirlar Kengashining rasmiy

<sup>24</sup> "СУДЬБА ОБЯЗАТЕЛЬСТВ РЕШАЕТСЯ СЕЙЧАС!" // Советская Каракалпакия. – 1960. – 14 февраля. – № 32.

<sup>25</sup> "ЎАТАНЫМЫЗДЫҢ ДАҢҚЫ УШЫН ҚАҶАРМАНЛЫҚ МИЙНЕТ!" / "КПСС XXVI СЪЕЗДИ ХҮРМЕТИНЕ!" // Совет Каракалпакстаны. – 1980. – 18 ноябрь. – № 223.

<sup>26</sup> Qoraqalpog'iston Respublikasi Milliy Arxivi, "Pressa nashrlari ro'yxatdan o'tish hujjatlari: „Erkin Qaraqalpaqstan“ va „Vesti Karakalpakstana“, 1991.

<sup>27</sup> "Erkin Qaraqalpaqstan" bosma arxivi, 1991–2000. Qoraqalpog'iston Respublikasi Milliy kutubxonasi, gazeta arxivi.

<sup>28</sup> Qoraqalpog'iston Respublikasi Joqarg'i Kengesi Arxivi, "Gazetaning siyosiy bosh maqolalari strategiyasi, 1991–1995"; Qoraqalpog'iston Vazirlar Kengashi Arxivi, "Milliy dasturiy maqsadlar va matbuot".

<sup>29</sup> Qoraqalpog'iston Respublikasi Davlat Arxivi, "Qatag'on qurbonlari hujjatlari"; Qoraqalpog'iston Respublikasi Milliy Arxivi, "Jadidchilik harakati arxivi".

<sup>30</sup> Niyazov, E. "Orol fojiasi va mahalliy matbuot". Ekologiya va Jamiyat 3, №7 (1999): 55–72.

nashrlari hisoblanadi<sup>31</sup>. Gazeta sovet davridagi 5-6 ustunli, o‘ta zich va qora-oq formatdagi yirik matn bloklaridan butunlay voz kechdi. Hozirgi gazeta sahifalari rangli formatda, zamonaviy dizayn, infografikalar asosida sahifalanmoqda. Bosma nashrda uzun xabarlar o‘rnini qisqa, lo‘nda va faktchekingga asoslangan yangiliklar dayjesti bo‘lgan tezkor axborot janrlari egalladi. Qabul qilinayotgan yangi qonunlar va davlat dasturlarining mazmun-mohiyatini tushuntiruvchi huquqiy va iqtisodiy sharhlar faol qo‘llanilmoqda.

Orol dengizining qurigan tubida amalga oshirilayotgan yashil qoplamalar va hududdagi ijtimoiy-ekologik holatga bag‘ishlangan ekologik reydlar, muammoli maqolalar va tahliliy ocherklar gazetaning yetakchi yo‘nalishiga aylandi. Ilgari “sotsialistik mehnat qahramonlari” ulug‘langan bo‘lsa, bugun xalqaro maydonda yutuqqa erishgan yoshlar, tadbirkorlar va hunarmandlar haqida zamonaviy portret-ocherklar va muvaffaqiyat tarixi (Success Story) janridagi intervyular chop etilmoqda.

Gazetalar hozirda faqat bosma shakli bilan cheklanib qolmasdan, o‘zining zamonaviy veb-saytlariga ega. Bosma nashrdagi an‘anaviy tahliliy maqolalar internet nashrlarida multimediyaviy reportaj, videointervyu, infografika va foto-slayd kabi yangi media janrlari bilan sintezlashgan holda o‘quvchiga yetkazilmoqda.

2022-2026 yillar tahliliha ko‘ra, gazeta sahifalarida hamon an‘anaviy matbuot formatiga xos bo‘lgan rasmiy, axborot-tahliliy va publisistik janrlar yetakchilik qilmoqda. Materiallar xarakteriga ko‘ra rasmiy va xronikal janrlarga bo‘lingan bo‘lib, davlat ahamiyatiga molik hujjatlar gazeta maydonining asosiy qismini egallaydi. Publisistik janrlarga oid ijtimoiy-iqtisodiy masalalarga bag‘ishlangan tahliliy sharhlar hamda jamiyatdagi ma‘naviy moddiy qarashlarni tahlil qiluvchi ijtimoiy maqolalar ustunlik qiladi. Taniqli shaxslar hayoti va ijodiga bag‘ishlangan xotira-ocherklar (yodnomalar) hamda mahalliy ijodkorlarning she‘riy namunalari (poeziya) muntazam chop etib kelinmoqda<sup>32</sup>.

Raqamli davr talablaridan kelib chiqib, gazeta sahifalarida an‘anaviy matnli jurnalistikadan yangi vizual va media-metodlarga o‘tish harakatlari seziladi. “Katta hajmli tahliliy matnlarni o‘quvchiga qulay formatda yetkazish uchun bosma longrid (print-longread) usulidan foydalanilmoqda.

Matn zichligini kamaytirish va ko‘z yugurtirib o‘qish qulayligini oshirish uchun eng muhim raqamlar, statistikalar va foizlar to‘q qora (bold) shrift bilan ajratilgan. Biroq bu amaliyot “Data jurnalistika” talablariga to‘liq javob bermaydi<sup>33</sup>. Chunki raqamlar vizuallashtirilmagan, balki yaxlit va og‘ir matn ichiga joylashtirilgan. Gazetada dinamik grafiklar, diagrammalar va infografikalar yetishmaydi. Inson taqdirleri va ijodkorlar haqidagi portret-ocherklarda badiiy publisistikaning ta’sirchan uslubidan

<sup>31</sup> Qoraqalpog‘iston Joqarg‘i Kengesi Arxivi, “Rasmiy axborot nashrlari ro‘yxati, 2000–2025”; Qoraqalpog‘iston Vazirlar Kengashi Arxivi, “Pressa tarkibiga oid qarorlar”.

<sup>32</sup> “Erkin Qoraqalpaqstan” gazetasi. – 2022. – 22 dekabr. – № 153.

<sup>33</sup> “Erkin Qoraqalpaqstan” gazetasi. – 2023. – 19 yanvar. – № 5.

foydalanilgan bo'lsada, bu raqamli multimedia elementlariga ega storytelling darajasiga ko'tarilmagan.

2026-yil holatiga ko'ra, tahririyat faoliyatida raqamli texnologiyalar bilan integratsiyalashuv quyidagi ikki yo'nalishda kuzatiladi:

Multimediali ko'prik (QR-kodlar) - gazetaning eng muhim va tahliliy maqolalarida QR-kodlar joylashtirilgan. Bu an'anaviy matbuotni raqamli media (veb-sayt, Telegram-kanal, video va audio platformalar) bilan bog'lashning eng samarali ko'prigidir.

Sun'iy Intellekt (SI) omili - gazeta sahifalaridagi matnlar arxitektonikasi va tili tahlil qilinganda, sun'iy intellekt generatsiyasining (shablonli, takroriy jumlar) izlari ko'rinmaydi. Maqolalar tili sof professional jurnalistik kontekstga ega bo'lib, an'anaviy insoniy mahorat maktabiga tayanadi<sup>34</sup>.

Qoraqalpog'iston Respublikasi matbuoti salkam bir asrlik taraqqiyot yo'lida mafkuraviy tazyiq qurolidan demokratik jamiyat ko'zgusi hamda raqamli media ko'priklariga ega zamonaviy tizimgacha bo'lgan transformatsion evolutsiyani bosib o'tdi. Bugungi kunda nashrlar o'zining an'anaviy tahliliy salohiyatini saqlab qolgan holda, hududiy muammolarni (xususan, Orol ekologik inqirozini) dadil olib chiqmoqda.

Biroq, raqamli davr talablaridan kelib chiqib, tahririyatlar oldida muhim vazifalar turibdi. Gazetalardagi statistik ma'lumotlarning og'ir matn bloklari (wall of text) ichida qolib ketayotgani, Data jurnalistikasi hamda infografikalardan unumli foydalanilmayotgani o'quvchining vizual axborotni qabul qilishini qiyinlashtiradi. Kelgusida raqamli integratsiyani faqat QR-kodlar bilan cheklamay, bosma matnni to'liq raqamli storytelling va vizual ma'lumotlar bazasiga aylantirish hududiy matbuotning raqobatbardoshligini ta'minlashning asosiy omili hisoblanadi.

### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Erkin Qoraqalpaqstan" bosma arxivi, 1991–2000. Qoraqalpog'iston Respublikasi Milliy kutubxonasi, gazeta arxivi.
2. "Erkin Qoraqalpaqstan" gazetasi. – 2022. – 22 dekabr. – № 153; – 2023. – 19 yanvar. – № 5, – 2026. – 14 may. – № 54–55.
3. Niyazov, E. "Orol fojiasi va mahalliy matbuot". Ekologiya va Jamiyat 3, №7 (1999): 55–72.
4. Qoraqalpog'iston Joqarg'i Kengesi Arxivi, "Rasmiy axborot nashrlari ro'yxati, 2000–2025"; Qoraqalpog'iston Vazirlar Kengashi Arxivi, "Pressa tarkibiga oid qarorlar".
5. Qoraqalpog'iston Respublikasi Davlat Arxivi, "Qatag'on qurbonlari hujjatlari"; Qoraqalpog'iston Respublikasi Milliy Arxivi, "Jadidchilik harakati arxivi".

<sup>34</sup> "Erkin Qoraqalpaqstan" gazetasi. – 2026. – 14 may. – № 54–55.

6. Qoraqalpog‘iston Respublikasi Joqarg‘i Kengesi Arxivi, “Gazetaning siyosiy bosh maqolalari strategiyasi, 1991–1995”; Qoraqalpog‘iston Vazirlar Kengashi Arxivi, “Milliy dasturiy maqsadlar va matbuot”.

7. Qoraqalpog‘iston Respublikasi Milliy Arxivi, “Pressa nashrlari ro‘yxatdan o‘tish hujjatlari: “Erkin Qaraqalpaqstan” va “Visti Karakalpakstana”, 1991. “Ukaz Prezidiuma Verhovnogo Soveta SSSR...” // Советская Каракалпакия, –1949. – 14 января. – № 9.

8. Гражданская война в Испании. Положения на фронтах” // Советская Каракалпакия, – 1937. – 17 мая. – № 107.

9. Крупская Н. «Поднять антирелигиозную пропаганду» // Советская Каракалпакия. – 1937. – 17 мая. – № 107.

10. Қори-Ниёзов Т. «Расцвет науки в Советском Узбекистане» // Советская Каракалпакия. – 1950. – 3 января. – № 2.

11. “Ленинский принцип мирного сосуществования и идеологическая борьба” // Советская Каракалпакия. –1960. – 14 февраля. –№ 32. “Научный подвиг Софьи Ковалевской” // Газета «Советская.

12. Каракалпакия». – 1950. – 6 января. – № 4. “Покончить с косностью в строительстве школ” // Советская Каракалпакия, – 1937. – 17 мая. – № 107.

13. “Пребывание тов. Н. С. Хрущева в Индии” // Советская Каракалпакия. – 1960. – 14 февраля. – № 32.

14. “Процветает очковительство” // “Ремонтом заниматься некогда” // Советская Каракалпакия, –1937. – 2 июня. – № 120.

15. “Советская Каракалпакия”. –1937. сс17 мая. –№ 107.

16. “Стахановцы добычи и обработки рыбы” // Советская Каракалпакия. – 1949. – 14 января. – № 9.

17. “СУДЬБА ОБЯЗАТЕЛЬСТВ РЕШАЕТСЯ СЕЙЧАС!” // Советская Каракалпакия. – 1960. – 14 февраля. – № 32.

18. ЎАТАНЫМЫЗДЫҢ ДАҢҚЫ УШЫН ҚАҶАРМАНЛЫҚ МИЙНЕТ! / “КПСС XXVI СЪЕЗДИ ХҲРМЕТИНЕ!” // Совет Қарақалпақстаны. – 1980. – 18 ноября. – № 223.

19. “Юбилей учительницы” // Советская Каракалпакия, –1950. – 3 января № 2.